



**NAMANGAN VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**NAMANGAN VILOYATIDA
UMUMIY O'RTA TA'LIM TASHKILOTLARI
FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK
KO'RSATKICHLARI**
(2022/2023- o'quv yili boshiga)






Namangan viloyatida umumiy o'rta ta'lim tizimi

Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishiga, shuningdek, ta'limning keyingi turi tanlanishiga hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishiga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshirilib, quyidagi uchta bosqich (I – XI sinflar)dan iboratdir:




Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining quyidagi turlari mavjud: boshlang'ich maktab (o'qitish muddati 4 yil: I – IV sinflar), umumiy o'rta ta'lim maktabi (o'qitish muddati 11 yil: I – XI sinflar), ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab (o'qitish muddati 7 yil: V – XI sinflar), ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati (o'qitish muddati 5 yil: VII – XI sinflar), ijod maktabi (o'qitish muddati 5 yil: VII – XI sinflar), Prezident maktabi (o'qitish muddati 7 yil: V – XI sinflar), olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati (o'qitish muddati 7 yil:

V – XI sinflar), jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internati (o'qitish muddati 11 yil: I – XI sinflar), psixik (intellektual) rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan (yordamchi) maktab, maktab-internati (o'qitish muddati 9 yil: I – IX sinflar), sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internati (o'qitish muddati 11 yil: I – XI sinflar), respublika ixtisoslashtirilgan o'quv-ta'lim muassasasi (o'qitish muddati zaruriyatga ko'ra).






Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni (o'quv yili boshiga, birlik)



Hududlar kesimida

(2022/2023- o'quv yili boshiga, birlik)





Faoliyat yuritayotgan nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni (o'quv yili boshiga, birlik)



Nodavlat umumta'lim tashkilotlari tomonidan ta'lim faoliyati davlat ta'lim standartlari va davlat talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Hududlar kesimida

Namangan sh.	5	0%	Pop	
Davlatobod	2	0%	To'raqo'rg'on	
Yangi Namangan	2	0%	Uychi	
Mingbuloq			Uchqo'rg'on.	
Kosonsoy			Chortoq	2 200,0%
Namangan	1	100,0%	Chust	1 100,0%
Norin	1	100,0%	Yangiqo'rg'on	1 1000%


Nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni, 2022/2023- o'quv yili boshiga, birlik | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati





Faoliyat yuritayotgan umumiy o'рта ta'lim tashkilotlari sonining ta'lim turlari bo'yicha taqsimlanishi

(o'quv yili boshiga, birlik)



Hududlar kesimida

(2022/2023- o'quv yili boshiga, birlik)






Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari mashg'ulotlarining smenaliligi

(jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarsiz,
o'quv yili boshiga, birlik)

Bir smenada



01




↑ **16%**

2022/2023- o'quv
yilida
2018/2019- o'quv
yiliga nisbatan

Ikki



02




↑ **3,2%**

2022/2023- o'quv
yilida
2018/2019- o'quv
yiliga nisbatan

Uch smenada




03



0%

2022/2023- o'quv
yilida
2018/2019- o'quv
yiliga nisbatan



Smenalar bo'yicha mashg'ulotlar
olib boradigan tashkilotlar ulushi
(2022/2023- o'quv yili boshiga)

- Bir smenada
- Ikki smenada
- Uch smenada




NAMANGAN VILOYATIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM




Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni

(o'quv yili boshiga, ming kishi)



Hududlar kesimida



(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)





Nodavlat umumta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni

(o'quv yili boshiga, kishi)



Hududlar kesimida

(2022/2023- o'quv yili boshiga, kishi)




O'quvchilar soni | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati






Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning gender taqsimoti

(o'quv yili boshiga, ming kishi)



Hududlar kesimida

(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)





Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

sonining ta'lim turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)




O'quvchilar soni

2018/2019- o'quv yiliga nisbatan o'sish sur'ati

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida smenalar bo'yicha tahsil olayotgan o'quvchilar sonining taqsimlanishi

(jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab va sinflar hamda boshqa ta'lim muassasalarida tashkil etilgan sinflarning o'quvchilarisiz, 2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)








Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

sonining sinflar bo'yicha taqsimlanishi

(jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab va sinflarning o'quvchilarisiz, 2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)






Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

sonining o'qitiladigan tillar bo'yicha taqsimlanishi


(jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab va sinflarning o'quvchilarisiz, o'quv yili boshiga, ming kishi)






Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) soni

(o'quv yili boshiga, ming kishi)



Hududlar kesimida


(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)





Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlaridagi oliy ma'lumotli o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) soni

(o'quv yili boshiga, ming kishi)



Hududlar kesimida

(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)

Namangan sh	3,9	-5,9%	Pop	3,2	0,0%
Davlatobod	1,7	6%	To'raqo'rg'on	3,3	3,1%
Yangi Namangan	1,5	7,1%	Uychi	2,6	4%
Mingbuloq	1,9	0,5%	Uchqo'rg'on	2,4	0,0%
Kosonsoy	2,6	0,0%	Choqtoq	2,8	7,7%
Namangan	2,0	12,1%	Chust	3,8	5,6%
Norin	2,1	0,0%	Yangiqo'rg'on	7,4	19,8%

O'qituvchilar soni | 2021/2022- o'quv yiliga nisbatan o'sish sur'ati





Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari (ming kishi)




Hududlar kesimida

IX sinf bitiruvchilari

(2022- yil uchun, ming kishi)

XI sinf bitiruvchilari





Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

o'rtacha sonining sinflar bo'yicha taqsimlanishi *

(2022/2023- o'quv yili boshiga, kishi)



NAMANGAN VILOYATIDA 2022/2023- o'quv yili boshiga umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning **bitta sinfdagi o'rtacha soni 25** nafarni tashkil etadi.

Ma'lumot o'rnida: umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar **35** nafardan **oshmasligi kerak.** (O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" 2020- yil 23- sentabrdagi O'RBQ-637-son qonuni).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonini sinflar bo'yicha taqsimoti *

(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming birlik)



* Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarisiz



Statistik ko'rsatkichlarga izoh

Ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

Davlat ta'lim muassasasi – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa.

Nodavlat umumta'lim tashkiloti – davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining asosiy maqsadlari – o'quvchilarni har tomonlama rivojlangan, madaniyatli shaxs sifatida shakllantirish, shuningdek, jamiyatda o'zlarining mustaqil o'rnini topish, ongli ravishda ta'lim va kasblar bo'yicha dasturlarni tanlash, ularni o'zlashtirish uchun asos yaratish, jamiyat, oila va davlat oldida o'z mas'uliyatlarini his qila oladigan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

Ta'lim tashkilotlariga qabul qilish – ushbu o'quv yilida o'qishga qabul qilinganlarning sonini ko'rsatadi. Qabul qilingan soniga ikkinchi yil o'qiyotganlar va avval o'qiganlar orasidan qaytib kelganlar qo'shilmaydi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilariga – umumta'lim muassasalarining boshlang'ich, tayanch o'rta va o'rta ta'lim bosqichlarida o'qiyotgan shaxslar hamda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarning o'quvchilari kiritiladi.

O'qituvchilar soni – o'quvchilarga ta'lim berish va kasbiy tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi, o'rta maxsus, oliy yoki maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslar soni.

Ta'lim tashkilotlarini bitirganlar – ushbu ta'lim tashkilotlarida o'quv kursini to'liq tugatgan va umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma)lar olgan shaxslar soni.





Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



**Namangan viloyati
statistika boshqarmasi**



e-mail:sdg@stat.uz



**ManzilNamangan sh.,
N.Namangoniy ko'chasi,
14**



www.stat.uz



Tel.: +99869 227-84-94



**facebook.com/uzstataxb
orot**

